

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

SAIDOVA AZIZA DAVLATOVNA

**ILMIY-TEXNIK TERMINLARNING LINGVOSEMIOTIK MAVQEYI VA
YASALISH JARAYONLARI (INGLIZ TILI MISOLIDA)**

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2024

UDK.: 811.111.255.2:6

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам
The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD) in Philology

Saidova Aziza Davlatovna

Ilmiy-texnik terminlarning lingvosemiotik mavqeyi va yasalish jarayonlari (ingliz tili misolida) 3

Саидова Азиза Давлатовна

Лингвосемиотический статус и процессы образования научно-технических терминов (на примере английского языка)..... 21

Saidova Aziza Davlatovna

The Linguo-semiotic Status and Formation Processes of Scientific-Technical Terms (in the Example of the English Language) 41

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works 45

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

SAIDOVA AZIZA DAVLATOVNA

**ILMIY-TEXNIK TERMINLARNING LINGVOSEMIOTIK MAVQEYI VA
YASALISH JARAYONLARI (INGLIZ TILI MISOLIDA)**

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2020.2.PhD/Fil1213 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Safarov Shahriyor Safarovich filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Gadoyeva Mavluda Ibragimovna filologiya fanlari doktori, dotsent Jabborov Sherzod Xalikulovich filologiya fanlari fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «25» iyun soat 09⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (456 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «12» iyun kuni tarqatildi.

(2024-yil «12» iyun dagi 24-07 - raqamli reestr bayonnomasi.)



D.S.O'rayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

Z.I.Rasulov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kutubi, filologiya fanlari doktori, dotsent

F.M.Xajiyeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori,
dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligi zamonaviy kontseptsiyasida lisoniy hodisalarni yangi ilmiy qonuniyatlar chegarasida talqin qilish, madaniyatlararo aloqalar diskursida dunyo tillari qatorida lingva franka maqomini egallagan global tillar terminosistemi birliklarining lingvosemiotik, diskursiv-pragmatik, kognitiv-konseptual, lingvomadaniy xususiyatlarini o'rganish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada ingliz tilining turli sohalarga oid terminlar tizimini tavsiflash, nazariy va amaliy bilimlarni oshirish, har bir tilning leksik-semantik xususiyatlarini o'rganish, lug'at birliklarining ma'noviy strukturasi farqlash, so'z va terminning mazmun-mohiyati, termin yasashda kechadigan funksional-semantik jarayonlarni ilmiy jihatdan yoritish, terminlarning derivatsion qonuniyatlari, metalingvistik tizimlashtirilishi, terminologizatsiyalanish dinamizmiga doir nazariyalarni ilmiy baholash imkonini beradi.

Dunyo tilshunosligi terminosferasi maydonida ingliz tili terminotizimlarini tavsiflash, ularni o'zbek tili bilan qiyoslab o'rganish, ularning morfologik, struktur-semantik, lingvostilistik, leksikografik xususiyatlari, mazkur kategoriyaga tegishli birliklarning leksik-frazeologik, universal, differentsial, tavsifiy-tasnifiy belgilari, mufassal o'rganilgan. Zero, so'z birikmalarining tarkibi, termin derivatsiyasi qoidalari muayyan qo'shimchalar, affiks va suffikslar yordamida yangi termin yaratish, ularni sohalararo qo'llash usullari, ilmiy-texnik terminlar tadqiqi, ularning shakl va mazmun chegaralarining funktsional dinamizmi, polisemiya, omonimiya, variativlik qonuniyatlari doirasida terminlarning mantiqiy-kontseptual qiymatini hamda innovatsion taraqqiyot istiqbollarini belgilash uchun xizmat qiladi.

Mamlakatimizning bugungi kundagi jadal rivojlanish bosqichida O'zbekiston Respublikasini ilm-fan, intellektual salohiyat sohasida yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi¹ning davlat dasturida ustuvor yo'nalish sifatida belgilab qo'yilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini rag'batlantirish va innovatsiya faoliyatini takomillashtirish o'zbek tilshunosligi oldiga ham fundamental tadqiqotlarni jahon andozalari darajasiga yuksaltirishdek ustuvor vazifani qo'ydi. Turli soha mutaxassislarining rus, ingliz, nemis va boshqa tillarni mukammal bilishlari, xorijiy tillarda erkin fikrlash, muloqot yuritish qobiliyatiga ega bo'lish, ma'lum sohaga oid terminlarni o'z o'rnida, muqobil variantlari asosida qo'llashlari, mamlakatlararo munosabatlarda turli tillardan foydalanish, bir-birini tushunishning ahamiyatini anglash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylandi. Bir vaqtning o'zida keng iste'mol qilinadigan tilda va maxsus ixtisosliklarning turli sohalarda foydalaniladigan terminlarni o'z o'rnida to'g'ri qo'llash, tillararo termin yasashda muayyan qoidalarga amal qilish zarurati hamisha dolzarblikni kasb etib kelgan. Shu ma'noda ingliz ilmiy-texnik terminologiyasiga daxldor kategoriyalarning lingvosemiotik mavqei, terminografik tamoyillarini yoritish, nazariy qarashlar, yechimlar bilan boyitishga keng yo'l ochadi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni // Xalq so'zi 2017 yil, 8 fevral'. № 28 (6722).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiyaning ilmiy natijalari ma’lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Terminologik masalalar A.A.Reformatskiy, A.S.Gerd, D.S.Lotte, V.M.Leychik, L.Y.Buyanova, K.Kageura, D.Sageder, S.Jakobson, M.Mufloz, G‘.Abdurahmonov, H.Dadaboyev, Q.B.Shodmonov, X.D.Paulenova, G.I.Ergasheva, O.Axmedov² va boshqalar ishlarida tadqiq qilingan. Terminologiya sohasida amalga oshirilgan ishlar son jihatidan ko‘payib borayotgan bo‘lsa-da, termin tabiatiga, uning lingvosemiotik xususiyatlariga hamda yasaliş jarayonini ta‘minlovchi omillar borasida qator muammolar ham mavjudki, ularni o‘rganish va yechimini topish zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishlarini jalb qilgan holda yangicha yondashuvni talab qiladi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda ingliz tili terminotizimlarini tavsiflash, ularni o‘zbek tili bilan qiyoslab o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar izchil olib borilmoqda³. Shuning bilan bir qatorda, terminologik lug‘atlar tuzish amaliyoti

² Реформатский А.А. Как работать над терминологией. Основные методы. – М., 1968. – 198 с.; Герд А.С. Еще раз о значении термина // Лингвистические аспекты терминологии. – Воронеж, 1980. – 70 с.; Лейчик В.М. Лингвистические проблемы терминологии и научно-технический перевод. – М., 1990. – 77 с.; Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии. – М., 1961. – 210 с.; Буянова Л.Ю. Когнитивно-семиотическая деривация как механизм формирования и эволюции современной финансово-экономической терминосферы. // Вестник ЧелГУ, 2013, № Вып. 84. – С. 19-22; Sageder D. Terminology Today: A Science an Art or a Practice? // Brno Studies in English, vol. 36, №1., 2010; Mufloz M. Terminology. – Murcia, 2010; Абдурахмонов Ф. Терминология муаммолари. // Ўзбек тили терминологияси ва унинг таракқиёт перспективалари. – Т.: Фан, 1986. – 136 б.; Дадабоев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных памятниках XI-XIV вв. – Т.: Ёзувчи, 1991; Палуанова Х.Д. Экологик терминларнинг деривацион-семиотик хусусиятлари (ўзбек, қорақолпоқ, инглиз ва рус тиллари мисолида). Филол.фан.д-ри.... дисс.автореферати. – Т., 2016. – 88 б.; Ахмедов О.С. Инглиз ва ўзбек тилларида солиқ-божхона терминларининг лингвистик таҳлили ва таржима муаммолари. Филол. фан. докт. дисс. автореферати. Т., 2016.

³ Кадирбекова Д.Х. Инглизча-ўзбекча ахборот-коммуникация технологиялари терминологияси ва унинг лексикографик кўрсаткичлари. Филол.фан.бўйича фалсафа докт. (PhD).... дисс.автореферати. – Т., 2017. – 42 б.; Саидқодирова Д. С. Инглиз ва ўзбек интернет терминларининг лингвистик тадқиқи. Филол. фанлари бўйича фалсафа докт. (PhD) дисс. автореферати. – Т., 2018. – 52 б. Абдуллаева Ш.Н. Ғазначилик соҳасида қўлланиладиган молиявий-иктисодий терминларнинг чоғиштирма таҳлили (инглиз, ўзбек, рус тиллари мисолида). Филол. фан. бўйича фалсафа докт... дисс. автореферати. Т., – 57 б.; Эркинов С.Э. Ҳарбий касбга

tobora takomillashib bormoqda⁴. T.A.Alekseyenko, V.D.Byalik, G.F.Dyachenko, L.I.Gorinova, M.G.Pavlova, Y.Y.Iofik, N.B.Skulovich kabi olimlarning tadqiqotlari tagtillar tipologiyasini ishlab chiqishga olib keldi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Samarqand davlat universitetining "Tilshunoslikning dolzarb muammolari va til ta'limiga innovatsion texnologiyalarni jalb qilish" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz tilidagi ilmiy-texnik terminlarining lingvosemiotik mavqeyini belgilash va yasalihi bilan bog'liq jarayonlarni aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

terminning asosiy xususiyatini leksikografik va lingvosemiotik talqin nuqtayi nazaridan tavsiflash hamda ingliz tili terminologiyasi boyishining asosiy manba va usullarini yoritish;

ingliz tilining umumtexnik va umummilliy terminologiyasini tizimlilik nuqtayi nazaridan tahlil qilish, tilda alohida terminotizimlar faoliyat ko'rsatishini dalillash;

ingliz tili terminologiyasining derivatsion ko'rsatkichlari hamda mazkur qatlamning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadigan eng muhim omillarni aniqlash;

ingliz tili ilmiy-texnik terminlarining leksik-semantik xossalarini tavsiflash yo'li bilan ularning lingvosemiotik tabiatini tahlil qilish.

Tadqiqotning obyekti sifatida ingliz tilining filologik va maxsus lug'atlarida o'z ifodasini topgan umumilmiy va umumtexnikaviy terminlar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini ingliz tilidagi ilmiy-texnik terminlarining lingvosemiotik mavqeyi va uning derivatsion xususiyatlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tavsifiy, komponent, etimologik, statistik, struktur-semantik, qoliplash va leksikografik sharhlash tahlil metodlari tanlangan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz tili terminosistemasida terminologik so'z yasalihi ongli tarzda kechadigan jarayon ekanligi, xoslangan so'z yasovchi morfemalarni sohaviy terminologiyaga sun'iy ravishda kirishi, tushunchalarning ma'lum tasnifiy tizimi shu tushunchalarni lisoniy ifoda vositalarining muayyan tizimi bilan bog'lashga imkon berishi inson kognitiv va lisoniy faoliyatining verballashuvi natijasida yuzaga kelishi isbotlangan;

termin yasalihi jarayonining derivativ xarakteri terminologik birlikning matn rivoji doirasida voqelanishi, matn hosil qilish qonuniyatlari bilan belgilanishi, matnda funksional-uslubiy nuqtayi nazardan muvofiq va pragmatik yo'nalgan

оид лисоний бирликларнинг систем-функционал хусусиятлари (инглиз тили материали асосида). Филол.фан. бўйича фалсафа докт. (PhD) дисс. автореферати. – Самарқанд, 2020. – 52 б.; Саримоқов Х.А. Инглиз ва ўзбек тилларида жисмоний тарбия ва спортга оид термин ва неологизмлар тадқиқи. Филол.фан. бўйича фалсафа докт. (PhD) дисс. автореферати. – Т., 2019. – 51 б.

⁴ Дўстмухамедов Ж. English-Uzbek Dictionary of Economic terms. – Т.: Ўзбекистон, 1994; Мусаев К.М, Эрдонаев А.Х., Қудратов М.Ш. Economics – Finance – Banking – Commerce (Беш жилдлик луғат). – Т., 1997; Олимжонов О.О, Маликов Т.С. Қоралиев Т.М. Замоновий молия-банк атама ва ибораларининг инглизча-русча-ўзбекча эквивалент луғати. – Т., 1996.

bo'lishi mazkur jarayon natijasi sifatida terminning ikkilamchi mahsulot ekanligi asoslangan;

ingliz tili ilmiy-texnik terminlarining grammatik, leksik va frazeologik xususiyatlari semantik, struktural va funksional maydon konstituentlarining tasnifiy omillari ekanligi va ularning dominant komponent (yadro) atrofida birlashuvchi ikkilamchi (periferik) elementlar qo'llanishini voqelantiruvchi kuch ekanligi aniqlangan;

ingliz tili leksikasining muhim qatlami hisoblangan sohalararo polisemantlar maxsus vazifa bajaruvchi so'zlar sifatida ma'noning xoslanganligi, semasiologik chegaralarning aniqligi (bir ma'noliligi), intellektual sofligi, ya'ni, maishiy so'z qo'llash uchun xarakterli bo'lgan obrazlilik va emotsionallikdan mustasno xususiyatlariga ega ekanligi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ingliz tilining ayrim sohaviy termin maydonlarini ajratish usullari takomillashtirilib, mutaxassislariga umummilliy va umumtexnikaviy terminlarni to'g'ri tushunish hamda muqobil qo'llash, ulardan kasbiy faoliyatda, jumladan, tarjima amaliyotida foydalanishlari yuzasidan takliflar berilgan;

terminologik, me'yoriy, qiyosiy va boshqa lug'atlar tuzishda maqbul bo'ladigan leksikografik amaliyotga oid tavsiyalar ishlab chiqilib, ingliz tili terminlari yasashining doimiy qoliplari va tarjima muqobillari aniqlangan;

milliy terminologiyani rivojlantirish malakasini talab darajasida shakllantirishga imkon beradigan ko'rsatmalar keltirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilishi, ishda qo'llanilgan yondashuvlar va usullar, foydalanilgan nazariy yondashuvlarning rasmiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar tavsifiy, komponent, etimologik, statistik, struktur-semantik, qoliplash va leksikografik sharhlash tahlil metodlari vositasida asoslangani, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ilmiy texnik terminlar tizimining murakkab tabiatga ega ekanligi isbotlanib tadqiqot natijalari orqali terminlar nazariyasi boyitilgan, xususan, hozirgi ingliz tili rivojiga, terminlar shakllanishi negizida turgan lisoniy, kasbiy va ijtimoiy omillarning o'zaro munosabatining ta'sir ko'lami aniqlanib, ilmiy-nazariy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ingliz tili ilmiy-texnik terminologiyasini o'rganish, mukammallashtirish, ilmiy ishning natijasi mamlakatimiz oliy o'quv yurtlarining turli ta'lim yo'nalishlarida ingliz tilidan amaliy va nazariy dars mashg'ulotlari o'tkazishda, shuningdek, tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishdagi nazariy umumlashma va tahlillardan "Leksikografiya", "Leksikologiya", "Lingvokulturologiya" fanlaridan o'quv qo'llanma, darslik, majmualar yaratishda hamda shu fanlardan maxsus kurslarni o'qishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz tilidagi ilmiy-texnik terminlarning lingvosemiotik mavqeyi va yasash jarayonlarini aniqlashga doir tadqiqot natijalari asosida:

ingliz tili terminosistemasida terminologik soʻz yasalishi ongli tarzda kechadigan jarayon ekanligi, xoslangan soʻz yasovchi morfemalarni sohaviy terminologiyaga sunʼiy ravishda kirishi, tushunchalarning maʼlum tasnifiy tizimini shu tushunchalarning lisoniy ifoda vositalarining muayyan tizimi bilan bogʻlashga imkon berishi inson kognitiv va lisoniy faoliyatining verballashuvi natijasida yuzaga kelishi oid nazariy xulosalardan Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutida 2017-2020 yillarda bajarilgan FA-F1-005 “Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligini tadqiq etish” mavzusidagi fundamental ilmiy loyihani bajarishda foydalanilgan (Oʻzbekiston Fanlar Akademiyasi Qoraqalpogʻiston boʻlimining 2023-yil 05-iyundagi №17.01/210-son maʼlumotnomasi). Natijada leksikografik amaliyotga oid tavsiyalar hamda terminlar yasalishining doimiy qoliplari va tarjima muqobillari aniqlanganligi ilmiy maqolalarni tayyorlash hamda ularning ilmiy saviyasini oshirishga xizmat qilgan;

termin yasalish jarayonining derivativ xarakteri terminologik birlikning matn rivoji doirasida voqelanishi, matn hosil qilish qonuniyatlari bilan belgilanishi, matnda funksional-uslubiy nuqtayi nazardan muvofiq va pragmatik yoʻnalgan boʻlishi mazkur jarayon natijasi sifatida terminning ikkilamchi mahsulot ekanligiga oid nazariy va amaliy materiallardan Samarqand davlat chet tillar institutida amalga oshirilgan I-204-4-5 “Ingliz tili mutaxassislik predmetlaridan axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida virtual resurslar yaratish va oʻquv jarayoniga joriy etish” mavzusidagi innovatsion tadqiqot loyihasini bajarishda foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2022-yil 26-noyabrdagi №3319/30.02.01- son maʼlumotnomasi). Natijada terminlarning leksik-semantik, derivatsion xususiyatlari hamda terminotizimlar tadqiqi boʻyicha ishlab chiqilgan tavsiyalar ingliz tili mutaxassislik fanlari boʻyicha virtual resurslar yaratish takomillashtirilgan;

ingliz tili ilmiy-texnik terminlarining grammatik, leksik va frazeologik xususiyatlari semantik, struktural va funktsional maydon konstituentlarining tasnifiy omillari ekanligi va ularning dominant komponent (yadro) atrofida birlashuvchi ikkilamchi (periferik) elementlar qoʻllanishini voqelantiruvchi kuch ekanligi oid nazariy va amaliy materiallardan Samarqand davlat chet tillar institutida 2020-2021 yillarda amalga oshirilgan Tempus Project 544161-TEMPUS-1-2013-1-UK-TEMPUS-JPCR Aston University DeTEL “Developing the Teaching of European Languages: Modernizing Language Teaching through the development of Blended Masters Programmes” mavzusidagi innovatsion tadqiqot loyihasini bajarishda foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2022-yil 26-noyabrdagi №3321/30.02.01- son maʼlumotnomasi). Natijada oʻqituvchi va talabalarning tilshunoslik, tarjimashunoslik sohalaridagi bilimlarini oshirish hamda magistratura bosqichida taʼlim tizimini takomillashtirish va xalqarolashtirish maqsadida yaratilgan oʻquv qoʻllanmalarni shakllantirishda yangi yondashuv sifatida mazkur tadqiqotdagi tahlil amallari xizmat qilgan;

ingliz tili leksikasining muhim bir qatlami hisoblangan sohalararo polisemantlar maxsus vazifa bajaruvchi soʻzlar sifatida: maʼnoning xoslanganligi, semasiologik chegaralarning aniqligi (bir maʼnoliligi), intellektual sofligi, yaʼni, maishiy soʻz qoʻllash uchun xarakterli boʻlgan obrazlilik va emotsionallikdan mustasno xususiyatlariga ega ekanligi bilan bogʻliq xulosa va natijalardan

Samarqand viloyat teleradiokompaniyasida 2022 yil 25 noyabr kuni efirga uzatilgan “Assalom, Samarqand” ko‘rsatuvini navbatdagi sonining ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2022-yil 29-noyabr №448-son ma’lumotnomasi). Natijada tomoshabin va tinglovchilarni bugungi kunda xorijiy tillarni o‘rganish hamda terminologik birliklarning shakllanishi, muloqot matnida faollashuv xususiyatlari bilan tanishtirishda muayyan darajada takomillashtiruvga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 15 ta, jumladan, 3 ta xalqaro va 12 ta respublika ilmiy-anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 25 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, ulardan, 5 tasi respublika va 5 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 135 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi hamda respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi dalillangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi tahlil qilingan, tadqiqot maqsadi va vazifalari belgilangan, tadqiqot ob‘yekt, predmeti va usullari ko‘rsatilgan; ilmiy yangilik ifodalangan, tadqiqotning amaliy natijalari taqdim etilgan, olingan natijalarning ishonchligi asoslangan va ularning nazariy-amaliy ahamiyati ochib berilgan; tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Termin lug‘aviy birlik sifatida va uning lingvosemiotik maqomi”** deb nomlangan birinchi bobi terminning lug‘at tizimida egallagan o‘rni aniqlash va uning alohida lingvosemiotik birlik sifatida boshqa lug‘aviy hodisalar, shu jumladan umumiy qo‘llanishdagi so‘zlar bilan munosabatini yoritishga bag‘ishlangan.

Terminlarning o‘ziga xos xususiyatlarini so‘z, ma’no, tushuncha va narsa-predmet kabi kategoriyalarning o‘zaro nisbati nuqtayi nazaridan aniqlash harakatlari mavjud. Terminni so‘zdan ajratib turuvchi xususiyatlar qatorida termin nominativ funktsiya bajarishiga, ifodalanayotgan tushuncha bilan aniq munosabatda ekanligiga hamda terminlarning mazkur terminologik tizim doirasida o‘zaro aloqadorligiga e’tibor qaratiladi. Bulardan tashqari, so‘z yasallishining yasama va grammatik shakllari orasidagi o‘zaro aloqa, terminologik birikmalarning umumxalq tilidagi frazeologik birliklarga nisbatan o‘ziga xos xarakteri, ilmiy terminologiyalarda faqat mutlaq sinonimlarning bo‘lishi, terminologik ma’noning usluban neytral hamda emotsional bo‘yoqdan xoli ekanligi ham qayd etiladi.


Nazarimizda, so‘z va termin munosabati talqinida so‘zning birlamchi ekanligini unutmazlik kerak, zero bu yerda hosilaviylik tamoyili ustuvorlik qiladi: termin so‘z negizida hosil bo‘ladi, Darhaqiqat, terminlar tizimining boyishi, to‘ldirilishi va takomillashtirishining manbasi tilning lug‘at zaxirasidir.

Tilning oddiy sohibi uchun til belgisida qayd etilgan tushuncha soʻz tashiyotgan axborot tarzida namoyon boʻladi. Axborot tashiydigan har qanday soʻz belgisi nafaqat hajm, balki sifat jihatidan ham turlicha boʻlishi mumkin. Har bir tushuncha oʻzining elementar strukturasi ega, yaʼni umumiy tushunchaviy tarkib ayrim semantik qismlardan tashkil topadi. Tushunchaning mazmuniy strukturasi unsurlari qanchalik koʻp qayd etilsa, uning oʻzi ham shunchalik koʻlamdor boʻladi. Bir qarashda gʻayriixtiyoriy koʻringan bu holat aynan tushuncha elementar strukturasi lugʻatlarda aks etishi bilan qoʻllab-quvvatlanadi.

Shuning uchun struktura hech qachon tasodifiy xususiyatga ega boʻlmaydi. Terminlarning yasaliş va qoʻllanish qonuniyatlari adabiy tilning tegishli qonuniyat-qoidalari bilan umumiydir. Terminlarning asosiy qismi soʻz yasalişining amaldagi qoidalari asosida hosil qilingan birliklardan iborat. Shu bilan birga, yangi ilmiy terminlarning yasaliş oʻz xususiyatlariga ham ega va bu terminning maxsus qoʻllanish sohasi birligi boʻlgan soʻz yoki soʻz birikmasining xarakterli koʻrsatkichlari bilan bogʻliq. Chunki termin maxsus obʼyekt yoki tushunchaning nomi. Tegishli tushuncha mazmunini aniq aks ettiradigan tavsif bunday nomga mos boʻladi.

Termin leksik birlik sifatida muayyan bilim sohasining ilmiy va texnikaviy tushunchasini nomlash hamda kommunikativ va kognitiv vazifalarini bajaradi, yaʼni terminologiyaning xususiyati aniq bir bilimni namoyon etish xususiyati bilan oldindan belgilanadi.

Terminotizimning kategorial (struktur-semantik, kommunikativ-funksional va sh.k.) xususiyati turli koʻrsatkichlar boʻyicha shakllanadi (1-chizma).



1. Morfologik belgilar, soʻzlarning bir leksik-grammatik sinfga (xususan, otlar sinfi) nisbatan aloqalariga koʻra aniqlanadi. Terminologik leksikani morfologik sathda oʻrganish terminotizimning umumiy kategorial xususiyatini va muntazam struktur turlarni aniqlash yoʻli bilan tahlil qilishga yordam beradi [Weise, 2005: 200].

2. Semantik aloqalar, yasama va qoʻshma ot-terminlarning tarkibiy qismlarini semantik munosabatlar hamda soʻzlarning alohida qismlarini terminologik belgilar asosida birlashtirish yoʻli bilan voqelanadi. Masalan, texnik terminlarda – bu harakat shakli, materiali, vazifasi, xarakateri va boshqalarni koʻrsatuvchi munosabatlar boʻlib, ilmiy terminlarda esa xossa yoki harakat, jarayonni ifodalovchi munosabatlardir.

3. Unsurlarning morfologik-semantik aloqalariga koʻra oʻrganilishida umumiy leksik asos (morfema)larning yoki maʼno semantik komponentlarining

mushtarakligi hisobga olinadi. Masalan, texnik terminologiya unsurlarining mushtarakligida aynan bir xil morfologik ifoda (qo‘shma asos) qayd etiladi.

Terminning variantlashuvi masalasi hozirgi terminologiya fanining murakkab muammolaridan biridir [Hickey, 2009: 110-111].⁵ U terminomaydonlarda kechadigan asosiy leksik-semantik jarayonlar, xususan, sinonimiya (yoki nomlarning ko‘pligi) masalasi bilan bevosita bog‘liq.

Biz terminlar variantlari deganda bir tushunchani ifodalovchi va har xil so‘z yasash qoliplariga ko‘ra bir asosdan hosil bo‘lgan ikki yoki undan ortiq terminologik birlikni tushunamiz. Jumladan, izohli lug‘atlar bilan tanishish ingliz va amerika terminologiyasi variantlarining o‘ziga xosligini kuzatish imkonini beradi.

Terminning bunday o‘xshashligining shu tarzda talqini asnosida, eng avvalo, uning quyidagi turlarini ko‘rsatish mumkin:

- leksik-semantik variantlar (*getter* – “gaz yutuvchi”, “kon qazuvchi”);
- fonomorfologik variantlar (*girth, girt* – “kashak”, “hovon”, “tirgovich”, “tirgak”, *feigns, feign* – “boyitish chiqindilari”);
- so‘z yasash asosida yuzaga kelgan variantlar (*centrically, centric* – “markaziy”) [Stein, 2005:448].⁶

Terminotizimlar alohida olingan bir tilda o‘ziga xos xususiyatlarga ega va ularning struktur semantik, kommunikativ-funksional va boshqa belgilarini chuqur o‘rganish zarurati mavjud. Masalan, ilmiy-texnik tushunchalar miqdori o‘sib borgani sari keng iste‘mol qilinadigan so‘zlar faol ravishda majoziy ma‘no kasb etadi va metaforik ko‘chimga uchraydi.

Ayrim qism (detal) va konstruksiyalarning texnik jihatdan takomillashishi yangi metaforik terminlarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Masalan, vertolyotni ba‘zan hazillashib, *flying banana* (“uchar banan”), samolyotning zamonaviy shaklini esa *flying cigar* (“uchar sigara”) deyishadi. Metafora inson ongining mavhumlashtiruvchi faoliyati natijasidir.

Bunday yo‘sinda ifodalangan metafora juda murakkab hodisa bo‘lib, unda odatdagi emas, balki qo‘shaloq semasiologik mazmun go‘yo bir-biri ustiga joylangandek va bir paytda nutqqa olib kiriladigan ikki murakkab ma‘noning yaxlitligi voqelanadi. Binobarin, istaforaning o‘ziga xos xususiyati so‘zning ko‘chma va tub ma‘nolarining aynan bir paytda qo‘llanishida namoyon bo‘ladi.

Qiyoslanayotgan hodisalarni bunday chegaralash metaforizatsiya natijasida umumiste‘moldagi so‘zlardan termin yasash jarayonini aniqroq va xolisroq tasavvur qilishga yordam beradi. Haqiqatan ham, termin yaratilayotganida biz birlamchi nominatsiya muammosiga duch kelamiz: u yoki bu ilmiy-texnikaviy sohada yangi kashf etilgan hodisa yoki predmet avvaldan o‘z nomiga ega emas. Shuning uchun biror bir predmet yoki hodisaning umumiy tilda mavjud nomi yangi, birinchisi bilan u yoki bu ma‘noda o‘xshash narsani ifodalash uchun ishlatiladi. Bunday holatda terminning yasalishi o‘xshashlik assotsiatsiyasi, ma‘noning mushtarakligi bilan shartlangan bo‘ladi.

⁵ Hickey 2009 “Telling people how to speak. Rhetorical grammars and pronouncing dictionaries”, in: Ingrid Tiekens-Boon van Ostade and Wim van der Wurff (eds) *Current Issues in Late Modern English* Frankfurt: Peter Lang. pp. 89-116.

⁶ Stein J. *The Random House Dictionary of the English language*. – New York: Random House dictionaries, 2005. – XXXII, 2059 p. [J. Stein – 2005].

Nomlash harakatining funksional ko‘chishi shundan iboratki, u yoki bu predmet yoxud hodisaning nomi ularning vazifalari umumiylik asosida boshqa predmet yoki hodisaga o‘tadi. Mazkur holat ham borliq hodisalari ayrim belgilarining mavhumlashishi natijasida yuzaga keladi. Ammo ular orasida muhim tafovut ham bor. Ushbu tafovut shundan iboratki, metaforik ko‘chish predmet yoki hodisalarning moddiy jihatdan o‘xshashligiga asoslanadi. Funksional ko‘chim asosiga esa, ma’lum vazifa ijrosi bilan bog‘liq semantik assotsiatsiyalar yotadi.

Asos qilib olingan so‘z va undan yasalgan termin orasidagi funksional o‘xshashlik nafaqat yangi predmet yoki hodisa nomlanayotganda, balki umumiste’mol so‘z va termin mavjud bo‘lgan hamda qo‘llangan paytda ham saqlanib qoladi. Bu leksik-semantik birliklar ma’nolari orasidagi aloqa faqat etimologik xarakterda bo‘lmasdan, balki ular orasida funksional aloqa ham saqlanib qoladi. Shu bilan birga, terminologik ma’no umumiste’mol dagi so‘z taraqqiyotining izchil tarixiy bosqichini o‘zida namoyon etadi.

Ma’noning taraqqiyoti natijasida terminlashgan umumiste’mol so‘zlar ayrim semantik o‘zgarishlarni boshdan kechiradi: so‘zlarning birikuvchanligi o‘zgaradi, yangi so‘z yasovchilar paydo bo‘ladi.

Terminlari tizimi sinonimik imkoniyatlarning faollashuvi natijasida ham rivojlanishi kuzatiladi. Masalan, (ijtimoiy-siyosiy terminlarning o‘zaro aloqasi umumlisoniy muhitga, ijtimoiy fanlarning taraqqiyotiga muqobillashuvi) mazkur soha termin ijodkorligida sinonimiyaning tizimli maqomini namoyon qiladi, bir-biri bilan aloqada bo‘lgan tillarning terminologik tizimlari orasidagi o‘zaro ta’sir natijalarini aks ettiradi.

Ingliz tilining texnika tagtilida quyidagi terminlar shakllari turlari e’tiborga munosib: 1) o‘zlashma o‘zak+o‘zlashma suffiks (*defecation* – “defikatsiya”, *solubility* – “eruvchanlik”); 2) tub o‘zak+tub suffiks (*washer* – “lavlagi yuviladigan qurilma”, *crystallizer* – “kristallizator”); 3) o‘zlashma o‘zak+qadimgi suffiks (*mixer* – “qorg‘ich”, *breakage* – “buzish”, *drainage* – “oqib” (sirqib) chiqib ketish”) va boshqalar.

Terminlar tarkibiy qismlarning tashqi tahlili milliy til bilan terminologiyaning o‘ziga xos xususiyatlari orasidagi aloqalarni, shuningdek, tillararo aloqalarni ham aks ettiruvchi kategoriyalarni aniqlashga yordam beradi. Bunda gap, eng avvalo, baynalmilallik xususida boradi.

Darhaqiqat, jamiyat va ilmiy-texnikaviy taraqqiyot yangidan-yangi hodisalarni paydo qiladi va bu hodisalar haqidagi ma’lumot, tushunchalarni ommalashtirish hamda boshqalarga yetkazish zarurati tug‘iladi. Xuddi shu zarurat nomlash ehtiyojiga olib keladi va bu ehtiyojni qondirish maqsadida boshqa tillarda amalda mavjud terminlarni o‘zlashtirishga sabab tug‘diradi.

Bizningcha, o‘zlashma terminning xarakterini, qabul qilayotgan tilda egallagan o‘rnini, yangi til muhitiga ta’sirini aniqlashda uning struktur morfologik xususiyatlari muhim rol o‘ynaydi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Termin yasash tizimining ichki tuzilishi**” deb nomlangan. Mazkur bobda terminlar derivatsiyasining nazariy asoslari yoritilib, ingliz tili uchun xos terminologik lug‘atning muayyan turi uchun lug‘at tarkibini tanlash mezonlari mazkur leksikografik manbaning terminologik, xususan, sohaviy

lugʻatlar tipologiyasidagi tutgan oʻrni va turiga bogʻliq boʻlgan termin yasash usullari va ularning faollashuv shart-sharoitlari oʻrganilgan.

Maxsus qoʻllanish sohasi leksik birliklarini tasniflash masalasi hozirgi terminologik tadqiqotlarda sezilarli oʻrinni egallaydi. Bu fan va texnika turli tagtillarining leksikasi tuzilishiga koʻra bir xil emasligi bilan izohlanadi va uni tashkil qilgan unsurlar aloqalarining rang-barangligi bilan ajralib turadi.

Terminologik va noterminologik leksik birliklar orasidagi tafovutlarni oʻrganish yoʻllaridan biri turlanish (oʻzgarib turish) va variantlashuv xususiyatlarini tahlil qilishdir.

Terminologik birliklarning variantlashuv va semiotik xususiyatlarini oʻrganish terminologik tagtillarni tartibga solish va standartlashga maqbul yondashuvni topish imkonini beradi. Bunda, eng avvalo, struktur umumiyli va semantik yaqinligiga koʻra oʻzaro mos sof terminologik va noterminologik qatlamlarini chegaralash lozim.

Atributiv konstruksiyalarda aniqlovchi ham aniqlanmish ham sof terminlar boʻlsa, u holda birikma batamom terminlashgan boʻladi. Masalan, matematik tagtildagi quyidagi birikmalarni qiyoslang: *linear equation, arithmetical algebra, infinitesimal calculus, additive arithmetic, polyhedral angle, equilateral hyperbola, binomial coefficient* va boshqalar.

Agar soʻz birikmalarida *-ed* qoʻshimchasi bilan tugallangan aniqlovchi mavjud boʻlsa, 1) *unexpected place, assumed denumeration, obtained expression, detailed discussion* kabi tavsiflovchi va 2) *dotted, line, two-valued logic, excluded middle, continued fraction, applied mathematic* singari terminlarning juda yaqqol qarama-qarshi qoʻyilishi kuzatiladi. Bunda *fixed bound, reduced form, defined notion, abbreviated expression, advanced analyses* va boshqalar tipidagi soʻz birikmalari oraliq qatlamni tashkil qiladi, yaʼni ular 1) ilmiy matnni tavsiflovchi va 2) terminlashgan soʻz birikmalari orasida joylashadi.

Terminologiyaning soʻz yasash tizimiga murojaat etadigan boʻlsak, u holda tizimlilikni soʻzning morfem va derivatsion strukturasi mushtarakligiga asoslangan holda oʻrganish lozim boʻladi. Agar termin soʻz yasash jarayonining natijasi boʻlsa, morfemalarga boʻlinish va soʻz yasash harakati oʻzaro mos keladi. (qiyoslang: *anodize va desorb*). Turlari morfem tuzilishiga ega terminlar bir darajadagi derivatsiya koʻrsatkichiga ega boʻlishi mumkin (*getter, decelerate, radiate*), bir xil morfem strukturali terminlar esa baʼzan yasalishning turli darajalarini namoyon etadi (*diffract va superheat*).

Termin yasalishining formal usullari va modellari turlicha boʻladi. Ular, asosan, umumadabiy tilda qanday boʻlsa, terminologiyada ham xuddi shundayligicha qabul qilinadi. Ammo amaldagi termin yasovchi usullarning har biri maʼno va mundarija jihatidan koʻp holatlarda boshqacha koʻrinish oladi.

Masalan, eng yangi izohli lugʻatlardan olingan maʼlumotlarga koʻra, elektronika tagtilida feʼl va otlashgan termin yasalishining xarakterli xususiyatlari quyidagilardir: 1) tabiatan morfologik boʻlinishli termin birliklari: *outgas, vaporize, resort, respuperheat* va 2) shartli morfologik boʻlinishli termin birliklari: *modulate, radiate, migrate, quantize*.

Affikslar yordamida terminlar yasashda umumadabiy tilning qator suffikslari qoʻllanadi: *heater, winding, hardness, arrestor, alignment, leakage, conductance, conductivity*.

Terminlar yasashida suffikslarning faolligi doimo qayd etiladi va bu oxirgi unsuri bir xil boʻlgan soʻzlar qatorini taʼkidlab koʻrsatishga imkon beradi: a) *-ite* maʼnolari bilan oʻzaro bogʻlangan terminlarni hosil qiladi: 1) sanoatda ishlab chiqilgan mahsulotlar nomlari; (*stabilite, amianite, ebonite, bakelite*); 2) foydali qazilmalarni ataydi (*zinnwaldite*)

Bunday usul bilan yasalgan ayrim soʻzlar uchun bir oʻzakli boshqa hosilalar ham mavjud (*stability, stabilization, stabilizer, stabilivolt, amint, ebony*).

Suffikssiz feʼllardan hosil qilingan barcha yasama substantivlar oʻzlashmalardir. Qiyoslang: *biject-bijection*.

Xuddi shuningdek, *-ify, -ize* va *-ate* suffikslari bilan yasalgan feʼllardan *-or / -er* qoʻshimchali nomina agentis hosil qilinadi. Bu yerda feʼl asosli komponent matematik amal maʼnosini beradi, harakat subʼyekti esa suffiksda ifodalanadi:

Normalize – “it normalizes”.

Matematik terminlar orasida faqat *-ity* yoki *-ness* suffikslari yordamida sifatdan yasalgan substantiv yangi hosilalar kuzatiladi. Bunda *-ity* suffiksi unumliroq va ushbu derivatlar uchun ikki semantik variant xosdir. Agar ular tub sifatdan yasalgan boʻlsa, u holda mazkur termin holat maʼnosini ifodalaydi: *Monotonicity* – “*passive state of monotone*”.

Boshqa substantiv birliklar negizida yasalgan suffiksli terminlar juda kam kuzatiladi. Bu yasamalar, qoidaga koʻra, *-ian* suffiksi bilan hosil qilingan terminlardir. Ular turli soha mutaxassislarini nomlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, ingliz tili tizimida matematik terminlar yasashda harakat, holat, sifat, oʻxshashlik yoki mansublik maʼnosini ifodalovchi 20 ga yaqin suffiks ishtirok etadi.

Texnik terminologiyada soʻz yasashining oʻziga xos xususiyati termin qurilishi uchun juda qulay va samarali suffiks va prefikslarni tanlashda namoyon boʻladi. Natijada muayyan terminologik tizimlarda maʼnolarning maʼlum affikslarga bogʻlanishi yoki bogʻliqlikka intilishi kuzatiladi.

Jumladan, xususiyat va sifat maʼnoli *-ity*, jarayon va harakat maʼnoli *-ment, -tion, -ling* suffikslari koʻpmaʼnolilik nuqtayi nazaridan oʻrganilishi mumkin.

Tahlil qilingan barcha lugʻatlarda *dis-, in₁-re-,un₂-*, *inter-* prefikslarining derivatsiya va maʼno xususiyatlari oʻz aksini topgan. Biroq taʼkidlash joizki, *be-*preffiksi faqat badiiy matnlar tili uchun xarakterli boʻlib, boshqa terminologiya sohalarida qariyb uchramaydi.

Soʻz yasovchi qolip bir turdagi hosilalarning eng umumiy shakli, ularning struktur-semantik monandi yaʼni analogidir. Soʻz yasash qolipining prefikslarning ichki valentlik xususiyatlari aniq koʻzga tashlanib turadigan oʻzak soʻzlarning muayyan turlari bilan birikuvining tizimli qonuniyatlarini tavsiflashga yordam beradi. Bunda prefiksli hosilani suffiks ishtirokidagi qolipdan farqlash kerak.

Yuqorida bayon qilinganlardan ayonlashadiki, lugʻatda oʻz ifodasini topgan terminlar derivatsiyasi haqida fikr yuritilganda ingliz tili termin yasash tizimidagi barcha derivatsion prefikslarning faollik darajasini bir xilda hisobga olish kerak boʻladi. Termin tarkibini oʻrganishga nisbatan bunday yondashuvning muhimligini

ma'lum bir termin yasovchi qolipning mahsuldorlik darajasini belgilashga intilishi bilan izohlash mumkin. Ta'kidlash joizki, yuqorida keltirilgan struktur qoliplar u yoki bu prefiks bilan birikadigan asos turini hisobga olgan holda shakllantiriladi.

Biz o'rgangan tagtillarda *en-* prefiksli murakkab fe'l terminlari qariyb kuzatilmaydi. Mazkur prefiksli terminlar uchun ikkilamchi asoslarga qaraganda birlamchi ot va fe'l asosida yasalgan birikmalar ko'proq xarakterli. Binobarin, bu asoslarning ko'pchiligi "*en-+n₁-v*" hamda "*en-+a₁-v*" qoliplari tarkibiga kiradi. Bu holat *en-* prefiksining sodda qurilmalarga moyilligidan dalolat beradi.

Shunday qilib, yuqorida bayon qilinganlardan g'ayrilisoniy omillar asoslarning birikish xususiyatlari va u yoki bu prefiksning qo'llanuvchanligiga bevosita ta'sir ko'rsata olishi mumkinligi ayonlashadi. Har bir prefiksning terminlar tagtizimida ishlatilish ko'lamini o'rganish ingliz tili terminologiyasida prefikslar ma'lum ma'noda u yoki bu tagtilga xoslanishini ko'rsatadi.

Murakkab sutstantiv terminlar so'zlarni o'zaro qo'shish yo'li bilan N+N (ot+ot) va Adj+N (sifat+ot) qoliplari doirasida yasaladi.

So'zlarni qo'shish yo'li bilan termin yasalishi uchun tarkibiy qismlarning qaysi so'z turkumi vositasida ifodalangani muhim. Qiyoslang: *wean-calf* ("(sutdan) ajratilgan buzoq"), *foster lamb* ("asrandi qo'zichoq"), *foster mother* ("asrab olgan ona"); Adj+n qolipi asosida ish quollarini ifodalovchi ko'plab qo'shma substantiv terminlar yasalgan: *mowing-machine* ("o'roq mashina" ("kosilka")); *threshing-machine* ("yanchish mashinasi"), *sowing-machine* ("urug' qadaydigan mashina" ("seyalka")) va boshqalar.

Terminlar tarkibida ikki otning yonma-yon kelishi borliq ob'yektlari orasidagi amalda cheklanmagan aloqalarni aks ettiruvchi har qanday munosabatlarni voqelantirishi mumkin. Bundan tashqari, N+N qolipli qo'shma terminlarning (umuman, qo'shma so'zlarning) keng tarqalishi ingliz tilining nisbatan sodda morfologik qurilishi va mazkur qolip asosida ko'chma otlar tuzishning sintaktik nuqtayi nazardan qulayligi bilan izohlanadi.

Keyingi yillarda qisqartma shakldagi terminlarning miqdori keskin oshib bormoqda. Hatto to'liq tarkibli tuzilishga ega bo'lgan terminoleksmalar ham tez-tez qisqartirilgan variantda qo'llanishi so'z yasash tizimining innovatsion usuliga aylanib bormoqda.

"Lisoniy tejamkorlik" umumiy an'anasining ta'siri terminologiyada turlicha kechadi. Shundaylardan biri terminologik birikma komponentlaridan birining tushirib qoldirilishidir. Bunday shakl qisqartirilishida ellipsisga uchrayotgan bo'lakning semantik roli saqlangan bo'lakka ko'chiriladi: *radioactive contamination* → *contamination*; *night firing sight* → *night+sight*, etc.

Bunday holatlarda qisqartirilgan va to'liq tuzilishdagi til birliklarining mazmuniy struktur munosabati doimiy emas. Lug'atlarda bu turdagi terminologik variantlar o'rtasidagi munosabat ko'pincha inobatga olinmaydi. Fikrimizcha, to'liq shakldagi terminologik birlik va uning qisqartirilgan varianti o'rtasida derivativ aloqa qayd etilishi shart.

Bu turdagi qisqartmalarda bir nechta yagona o'zakli so'zlar o'rin olishi mumkin. Masalan, *locality*, *locate*, *locating* kabi birliklar bir xilda *loc* qisqartmasini oladi.

